

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA'LIM
VAZIRLIGI

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI SAMARQAND DAVLAT
ARXITEKTURA QURILISH INSTITUTI

«Arxitektura» fakulteti

«Landshaft dizayni va interyer» kafedrası

Bitiruv malakaviy ishi(loyihasi)ning

TUSHUNTIRISH XATI

Mavzu: Namunaviy turar joy muhitining dizayn yechimi

Diplomant: Eshmamatova N

Rahbar: Qurbonov Sh.S

«Landshaft dizayni va interyer»

kafedrası mudiri: Qurbonov Sh.M

Samarqand-2017

MUNDARIJA

1. Kirish
2. Arxitekturaviy rejalashtirish qismi
3. Badiiy qismi
4. Hayotiy faoliyat xavfsizligi qismi
5. Ekologiya qismi
6. Xulosa
7. Adabiyotlar ro‘yxati

KIRISH



Me'morchilik ajdodlarimiz tomonidan qayta - qayta sayqal topib, boyitilib bizgacha yetib kelgan va juda katta qadr -qimmat topib kelayotgan noyob amaliy sanat turi xisoblanadi. O'rta Osiyo memorchiligi qadim zamonlardanoq dunyo madaniy taraqqiyotida salohiyatli o'rin tutib kelganligi qadim Samarqand, Buxoro, Xiva tarixiy obidalari misolida namoyon bo'lib turibdi. Ayni paytda zamonaviy shaharsozligimiz va me'morchiligimiz ham dunyo hamjamiyati tomonidan e'tirof etilmoqda. Buning boisi shundaki, zamonaviy me'morchiligimiz o'zining teran tomirlaridan quvvat olgan holda izchil rivojlanmoqda va tobora takomillashib bormoqda. Mustaqillik yillarida butun O'zbekistonimizda qad rostlagan ko'plab zamonaviy inshootlarda otabobolarimizning me'morchilik kasbiga munosabatimiz, mehr-u sadoqatimiz, ixlos va e'tiqodimiz mujassam bo'lib yaqqol ko'rinib turibdi.

Samarqand muqaddas shahar! Uning arxitekturasi, tarixiy me'moriy obidalari, havosi, zilol suvlari muqaddas. Bu shaharning muqaddasligi haqida tarixiy manbalarda yozib qoldirilgan. Jumladan, Sohibqiron Amir Temur o'zining buyuk imperiyasini poytaxti qilib Samarqandni tanlagani bejiz emas.

Demak bu shahar juda qadim zamonlardan tabiati, me'yoriy iqlimi, zilol suvlari, relefi ayniqsa arxitekturasini, - ilm va kasb-hunar namoyondalari bilan kishilar e'tiborini o'ziga jalb etgan.

Demak, Samarqandda qadimdan, ya'ni o'rta asrlardan ilgari ham shaharsozlik, uy-joy va shaharlarni hamda injener-texnik tizimlarni loyihalash amaliyoti mavjud bo'lgan. Bunga misol qilib Xiva, Buxoro va muqaddas shahar hisoblanmish "Samarqand"da bunyod etilgan qadimiy me'moriy obidalarini olish mumkin. Eramizdan uch asr ilgari o'tgan A. Makedonskiyning tarixshunoslari ta'rif etgan muqaddas shahar Samarqandni va uning tarixiy-me'moriy obidalarini bir ko'rish uchun butun dunyodagi ko'pchilik kishi orzu qilishadi.

Markaz muhitini zamon talabi darajasida bo'lishi avvalo shu shahardagi tabiiy asoslarga bog'liq. Aholi punktining material fondi ham bu borada muhim ahamiyatga ega. Chunki shahar o'zining butun tarkibiy qismlari, turar joy binolari va jamoat inshootlari, sanoat komplekslari va texnik qurilmalari, magistrallari va transport vositalari bilan fazoviy material muhitini sifatini yaxshilaydi yoki aksincha yomon ahvolga olib keladi.

Markaz muhitini tashkil etishda asosiy tamoyil qilib to'liqlik va bo'linmaslik, uning hamma tarkibiy qismlarini bir - birisi bilan uzviy bog'liqligidir. Jiddiy ahamiyatga ega bo'lgan bog'liq jihatlardan yana biri shundaki, odamlar tomonidan bu faoliyat doimiy boshqarib turiladi.

Markaz muhitini me'moriy rejalashtirish odamlarning ijtimoiy faoliyatini oshiradi. Jamiyatning taraqqiy topishi, madaniy rivoji, texnik imkoniyatlari va tabiiy resurslarini tobora boyib, talab darajasiga ko'tarilishini ifodalab beradi. Me'moriy rejalashtirish shu boisdan ham muhim davlat ahamiyatiga molik ish deb baholanadi.

Bizning davrimizda atrof - muhitni qayta qurish masshtabi shuncha keng doiradagi u hozirgi mavjud ekologik jarayonlarni buzishga olib kelmaydi deb bo'lmaydi. Ekologiya va tabiatdagi evolyusion muvozanat jarayonlarini o'rgana

borib, shunday xulosaga kelish mumkin : odam yaratadigan sun'iy muhit ko'proq uning o'ziga bog'liq va shahar madaniyati ham uning ehtiyoji va talabidan kelib chiqadi. Bu masala-larni yechishda rivojlangan shaxarsozlik ilmini yanada puxta egallash lozim.

Bunday hollarda muhimi muhit muvozanatini buzuvchi, ifloslantiruvchi, tabiiy resurslarni yo'q bo'lishiga olib keluvchi harakatni to'xtatish taqozo qilinadi.

Vazifa shundan iboratki, tabiatda shunday biologik tenglik sharoitini topish kerakki u inson madaniyati talablari rivojiga va shuningdek zamonaviy shaharlarni fundamental tashkil bo'lishiga qarshi chiqmasligi lozim.

Bunday hollarda tabiiy holat va urbanizm muhiti o'z to'laligini har tomonlama murakkab bir - birisi bilan bog'langan sistemani tashkil etishga xizmat qilmog'i lozim. Shu maqsad yuzasidan ta'mirlashga qaratilgan chora - tadbirlar maqsadga muvofiq ravishda shaharlarning resurslarini to'g'ri taqsimlash va foydalanish, funksional asoslarda bir - birisi bilan bog'liq mexnat joylari, turar joy, shahar material fondini qayta qurish va turli ahamiyatga molik qurilgan va shaharning bo'sh hududlarini obodonlashtirish va foydalanishga xizmat qilishi kerak.

**ARXITEKTURAVIY
REJALASHTIRISH
QISMI**

O‘zbekiston mustakillikka erishganidan so‘ng, boshqa sohalar kabi arxitektura va shaharsozlikda ham katta o‘zgarishlar ro‘y bermoqda, zamonaviy turar joy imoratlar, transport magistrallari, yo‘llar, osmon o‘par binolar, sanoat majmualari qurilishi va tarixiy shaharlarimizda memoriy obidalarining qayta tamirlash va rekonstruksiya qilingan ishlar yaqqol misoldir.



Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning tashabuslari bilan 2017 yilni “Xalq bilan muloqot va inson manfaatlari yili” deb elon qilishlari bu respublika kelajagini, uzoqni ko‘zlab qilingan istiqbolli “*Harakatlar strategiyasi*” tashabus deb o‘ylaymiz, qolaversa bu biz kabi arxitektor-quruvchilar zimmasiga katta masuliyat yuklaydi, chunki bizning tadbirkorlarimiz faoliyat olib boradigan korxona yoki tashkilot, ayniqsa zamonaviy turar joy uylari tizimida ular qanday bulmog‘i lozim va uning funksiyaviy joylashtirish tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayni paytda kichik biznes va tadbirkorlik ota-bobolarimizdan me'ros bo‘lib qolgan kasanachilik, kulolchilik, zarduzchilik, temirchilik, zargarlik kabi bir qancha sohalar bizga tarixdan malumki ular an'anaviy xalq uylari negizida rivojlanib ko‘llay funksiyaviy yechimlariga ega, sog‘lom turmush tarzimni shakillanishini bobolarimiz me'rosidan o‘rnak olgan holda, ayni paytda zamonaviy turar joy uylar tizimida qullash eng

dolzarb masaladir. O‘zbekistonning halq me'morchiligi o‘zining tabiiy-iqlimiy sharoitlari, madaniyati, milliy an'analari va qurilish texnikaviy bazasidan kelib chiqqan holda rivojlanib kelgan. Ilgari o‘zbek oilalarining ijtimoiy va tabiiy-iqlim sharoitlari uylarda ichkari va tashqari hovlilar bo‘lishini taqozo etgan. Tashqari hovlida barcha xizmatga doir ishlar, uchrashuvlar, xo‘jalik va tadbirkorlik ishlari amalga oshirilsa, ichkari hovlida esa oilaviy hayot turmush tarzi kechiriladi. Baxor va kuz faslining yoqimli, yozning jazirama issiq kunlari ochiq xavoda oila o‘z vaqtini ko‘proq qismi o‘tkazishiga qulay



imkon yaratilgan. Xalq uylari kompozitsiyasining o‘ziga xosligi shundaki, birinchi galda yuqori radiatsiyali quyosh nurlaridan ximoya qilsa, ikkinchidan issiq garemsel, chang-tuzonli shamollaridan ximoya kiladi.

Xalq me'morlari va binokorlari tomonidan keng ko‘lamli strukturalar va ularning elementlari, xonadonlarining hajmiy tashkillashtirish va keng maydonli bo‘lishini, iqlimiy talablari asosida ishlab chiqilgan. Ochiq keng hovli perimetri bo‘ylab xonalarining joylashtirish tartibi xam iqlimiy sharoiti va turmush tarzi talablardan kelib chiqadi. Tasodifiy o‘zgarishlar, shakllar uchastkalarining shakliga, qurilishiga uncha ta'sir ko‘rsatmagan. Bunga

o'xshash kichik chekinishlar asosiy loyihalashtirish tamoillardan chetga chekinishga yo'l qo'yilmaydi. Bu prinsip shundan iboratki, keng ko'lamli turar joy uylar kompozitsiyalarining asosini tashqi va ichki hovlilar tashkil etadi.

O'zbekistonning issiq va quruq iqlimida halq uylarining keng ko'lamli strukturalari va tashkil etilishiini taxlil qilish shuni kursadaki, halq uylarining funktsiyaonal va texnologik bog'likligini asoslarini yaxlit sistema tashkil etadi.

BMI mavzusi **“Namunaviy turar joy muhitining dizayn yechimi”** bo'lib, unda, ijodiy izlanishlar, yangi usullardan obrazli memorial inshootlar yaratishda keng foydalanish zarur. Markazlarning me'moriy ko'rinishini tashkil qilishda izchil izlanishlar olib borish taqozo etiladi. Faollik, yangilikka intilish, shu bilan birga qadim milliy uslublarni zamonaviy uslublar bilan uyg'unlashgan holda hayotga tatbiq qilish lozim. Markaz qurilishlari jarayonida birinchi navbatda estetik mezonlarni unutmaslik, buning uchun esa tinimsiz izlanishlar olib borish zarur. Bitiruv malakaviy ish loyihasi 240sm-160sm o'lchamdagi maxsus materialda komponovka qilingan. Mavzu bilan birgalikda markaz muhitining bosh rejasi, tabiiy va sun'iy landshaft elementlari, perspektiv va aksonometrik ko'rinishlar, topografik xarita, panorama ko'rinishlar va shu kabi me'moriy-badiiy konstruktiv chizmalardan tashkil topadi.

Zamonaviy shaharlarda material iqtisodiy bazalarni mustahkamlash bilan va qurilish muddatlarini butun tomonlama industriyalashtirish va mexanizatsiyalash bilan yirik shaharsozlik komplekslarini tashkil qilish imkoniyatlari paydo bo'ladi. Bunda bino va inshootlarni joyla-shuvi ochiq qator ko'kalamzorlashtirilgan fazo bilan shunday amaliy talabni qondirishni ko'zda tutadiki, natijada shahar qurilishida me'moriy - badiiy to'liqlik va gormonik birlikka erishiladi.

Markaz qurilishining ta'mirlash sharoitida, garmonik birlikka erishish turli kompozitsion omillar va uning ayrim qismlarini kelishilgan holda amalga oshirish bilan bog'liq bo'ladi.

Markaz qurilishida, fazoviy tartibni asosiy vosi-talari metrik va ritmik qurilmalar, modullar va proporsional bo'laklar ishlatilishi mumkin.

Muxit qurilishini injenerlik inshootlari va texnik qurilmalarini me'moriy - fazoviy chiroyliligini hamma vositalardan foydalanish va qo'llanish rivojlanayotgan shaharlarni katta maydonlarini estetik o'zlashtirish, ularni ayrim qismlarini masshtabli o'lchovlarda ekanligini ko'rsata bilishi kerak.

Tabiiy muhitni me'moriy baholash rayonni rejalashtirish bosqichida umum chizg'ilar doirasida ko'zlanadi, bosh reja loyihalarida va shaharlarni detal rejalashtirish loyiha-larida aniqlanadi va chuqurlashtiriladi.

Tabiiy landshaftlarni qayta qurish ularning asosiy xossalari va qonuniyatchiliklari asosida amalga oshirilishi kerak, ya'ni tirik material o'simliklarni doimiy o'zgaruvchan, o'sish sharoiti, o'simlikni biologik va ekologik xosiyati, yilning o'zgaruvchanligi va o'ziga xos sharoitlari asosida amalga oshirilishi lozim.

Markazning me'moriy badiiy sifati sezilarli darajada kuchayishi mumkin. Buning uchun maqsadga muvofiq monumental dekorativ san'at omillaridan to'la foydalanish zarur. Bu avvalambor haykaltaroshlik monumentlari, ulug' davlat arboblari yodgorlik haykallari, ilmiy - madaniy va boshqa turdagi jamoat faoliyatidan iz qoldirgan odamlar siymolari. Figurali haykallardan, monumentlardan tashqari me'moriy dekorativ inshoot va qurilmalar yaratishga ham e'tibor berish zarur. Monumentning kattaligini aniqlashda bir qancha shartlar e'tiborga olinadi: tarixiy ahamiyati, g'oyaviy obrazli mazmuni, monument atrofini rejalashdagi alohidaliklar, uni o'rnatish uchun ajratilgan maydon o'lchovlari, transport va piyodalarning monument yonidagi harakati sharoiti. Eng yaxshi ko'rinishga ega bo'lgan, badiiy jihatdan sifatli chiqarish imkoniyatlari ham aniqlanadi va tekshiriladi.

Har bir obodonlashtirilgan, ko'kalamzorlashtirilgan hudud o'zining kompozitsiya markaziga ega bo'lishi kerak. Kompozitsiya markazi bo'lib favvora yoki gulzori bo'lgan maydoncha, yoki suv havzasi, favvoralar va gulzor bilan qoplangan asosiy hiyobon xizmat qilishi mumkin. Asosiy qismining yaxlit ko'rinishi bilan va o'zaro to'g'ri kesishganlik darajasi – mutanosiblik va keng ko'lamlilik deyiladi. Masalan, agar hiyobon kichik bo'lsa, bu holda uning chetlari to'silgan bo'lishi lozim; hiyobon hajmi katta bo'lsa unga to'suvchi devorlar baland qilib quriladi. Gulzorning katta-kichikligi u joylashgan maydon hajmiga bog'liq. Gulzordagi o'simliklarni to'plashda e'tiborni shunga qaratish lozimki, guruhdagi o'simliklar balandligi bo'yicha sekin-asta o'zgarib, bir-biriga uyg'unlashib borishi kerak. O'simliklar dunyosi beqiyos rang-barang shakllar, fakturalar va qiyofaga ega.

O'simliklarning manzaraboplik xususiyatlarining ko'pligi, buning ustiga, vaqt va fasllar doirasida o'z qiyofasini o'zgartirib turishi, shaharlardagi bog'lar, istirohat bog'lari, hiyobonlar va boshqa xududlarning arxitektura ko'rinishini o'zgartirishga cheklanmagan imkoniyatlarni ochib beradi. Ekinzorlar shunday bir materialdirki, u alohida binoni yoki bir necha binolarni, mikrorayon va mavzelarning yaxlit ko'rinishini ta'minlaydi. Bog'lar, istirohat bog'lari, hiyobonlarning yashil ekinzorlari, katta yo'l va ko'chalar yoqasidagi ko'kalamzorlashtirilgan yo'lkalar shahar qismlarini birlashtirib turadi hamda shaharga go'zal manzara bag'ishlaydi.

QISHLOQ AHOLI YASHASH JOYLARINI KO'KALAMZORLASHTIRISH

Qishloq aholi yashash joylarini ko'kalamzorlashtirish shaharlarni ko'kalamzorlashtirishga o'xshash bo'lsa-da, qishloq joyining rejasi bilan bog'liq o'ziga xos xususiyatlarga ega.

Qishloq aholi yashash joylari quyidagilarga ajratiladi: 1) aholi hududi – turar uy joy binolari, madaniy-maishiy va jamoat binolari; sanoat hududi –

chorvachilik va parrandachilik fermalari, omborxonalar, ustaxonalar va boshqalar; 2) tashqi hudud – mevali bog‘lar, tomorqalar, sabzavot bog‘chalari, qishloq atrofidagi kichik o‘rmon yoki o‘rmon parki ko‘rinishidagi himoya hududi va boshqalar. Aholi yashash punkti bilan xo‘jalik – ishlab chiqarish inshootlari orasida 30 metrdan 300 metrgacha kenglikda himoya ekinzorlari barpo etiladi.

Tomorqa hududining asosiy tarkibiy qismi – xovli-joy maydoni bo‘lib, u yerda uy, omborxona, parranda va hayvonlar uchun ko‘chalar, asalari uyalari, parniklar, uy oldidagi to‘siqli kichkina mevali bog‘, tomorqa, gazonlar, gulzorlar joylashtiriladi.

Uylar oldidagi to‘siqli bog‘chalar bir nechta uylar qatorida joylashib, ko‘cha ko‘kalamzorlashtirish majmuasiga kiradi. Ular turar uy joy binosini piyodalar yo‘lakchasi va transport vositalaridan ajratib turadi. Ushbu daraxtzorlar 4-6 metr kenglikda barpo etiladi; ular yashil to‘siqlar bilan o‘raladi; mevali daraxtlar, butalar, gullar, toklar, chirmashib o‘sovchi o‘simliklardan tashkil etiladi. Bir necha uylar butalar va gullar ekilgan gazonlar bilan o‘zaro ajratilishi mumkin.

Qishloq aholi yashash joylarini ko‘kalamzorlashtirishning o‘ziga xos xususiyatlari shundan iboratki, uylar orasida ochiq joylar bo‘lib, ularda gazon (chimzor) ustiga manzarabop ekinzorlar joylashtiriladi va bu yer transport harakatlanishidan holi bo‘ladi.

Ishlab chiqarish kompleksi xududlari yashil to‘siqlar bilan o‘raladi. Xudud ichkarisida daraxtlar, butalar hamda ochiq joylarda gazonlar ekiladi. Ayniqsa, chorvachilik fermalari hududini ko‘kalamzorlashtirishni sinchiklab tashkil etish zarur. Ko‘kalamzorlashtirishning asosiy tartiboti shundaki, ferma chegarasi bo‘ylab himoya ekinzorlari yaratiladi, shuningdek, hudud ichidagi bino va inshootlarni o‘zaro ajratish uchun yashil ekinzorlar ekiladi. Masalan, chorva chiqitlari (go‘ng) saqlanadigan inshoot atrofi qalin daraxt ekinzori bilan o‘raladi (daraxtlar oralig‘i 1,5-2 metr).

Shuningdek, dala shiyponlari ham ko'kalamzorlashtirilishi kerak. Bularda tokzorlar, gulzorlar, hovuzlar oldida alohida manzarali daraxtlar yoki manzarali o'simliklardan qatorli va guruhli ekinzorlar barpo etish maqsadga muvofiq. Qishloq aholi yashash punktlarida devor yoqalab ko'kalamzorlashtirish, ya'ni ayvonchalarga chirmashib o'sadigan ekinlar bilan bezatish; kichik arxitektura shakllaridan foydalanish: posyolkaga kirish joyida arkalar, haykaltaroshlik namunalari, vazalar, ayvonchalar va kioskalarni qurish tavsiya etiladi.

BADIY QISM

Bitiruv malakaviy ish mavzusi “**Namunaviy turar joy muhitining dizayn yechimi**”.



Unda: mahalla markazlari, bolalar o‘yingohlari, sport maydonchalari, basseyn, muzqaymoq paviloni, mexmonxona, hammom, suratxona, dekorativ favvara va daraxt – butalardan tashkil topgan kompozitsiyalar mavjud.

Ma'lumki, qishloq aholi punktlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivoji ularni shahar bilan integratsiyasi davlatimizning qishloq aholisi farovonligini oshirish va bu boradagi ishlarni takomillashtirish davlat dasturlarining asosiy qismlarini tashkil etadi. Qishloq aholisi yashash joylarining sifatli taraqqiyotini ta'minlash va natijali rivoj-lanishiga erishish, bu taraqqiyotni tezlashtirish, ularni joylashuv va rivojini maqsadli rejalashtirish, uni tizimlashtirish va boshqarish bugungi kundagi eng dolzarb muammolardan biridir.



Savdo markazlari

Savdo markazlari xam ijtimoiy turmush darajalarining maxsuli bulib, ularda barcha xizmatlar – savdo, maishiy xizmat va umumiy ovkatlanish xizmatlari bir joyda mujassamlashtirilgan binolar kompleksidir. Savdo markazlari axoliga kator kulayliklar yaratish Bilan bir katorda savdo va madaniy-maishiy xizmat korxonalari ishlarini tashkiliy jixatdan yaxshilashga imkon beradi. Savdo korxonalari, umumiy ovkatlanish va maishiy xizmat kursatish tarmoklarini tashkil etish shaxar yo tumanning rejalashtirilgan ulchamlariga va axolining soniga boglikdir. Savdo markazlari kupincha pogonali kilib loyixalanadi. Uning birinchi kavatida yashash uchun birinchi navbatda zarur bulgan maxsulotlar, ikkinchi kavatida maishiy xizmat shoxobchalari, uchinchi kavatida umumiy ovkatlanish korxonasi joylashtiriladi. Loyixalashning birinchi talabi mustaxkamlik va kulaylik bulsa, ikkinchi bajarilishi zarur bulgan talab – sanitar-gigienik talablardir. Maxsulotlarning savdo markaziga kelib tushishi, xizmatchilar va axolining kirib-chikish yullari konkret aloxida-aloxida kilib loyixalanishi shart.

Maishiy xizmat binolari

Maishiy xizmat kursatish binolari uzining xizmat turiga karab savdo, turar-joy yo boshka binolar tarkibida va aloxida loyixalangan binolarda joylashadi. Korxonalarni joylashtirishda ularning maksadli belgilanishi (funksiyasi) va texnologik xususiyatlari xisobga olinadi. Masalan elektr uy jixozlarini ta'mirlash, soat tuzatish ustaxonasi, sartaroshxona, guzallik salonlari, poyafzal ta'mirlash boshka binolarning tarkibida joylashsa, atele, kimyoviy tozalash, xammomlar va mexmonxonalar aloxida binoda joylashadi.

Maishiy xizmat kursatish binolarining tarkibiy kismiga; buyurtma kabul kilinadigan joy, xizmatchilar uchun dam olish xonasi, ularga tegishli aloxida sanitar tarmoklari, asosiy ishlab chikarish zali, omborxona va ma'muriy xonalar kiradi. Buyurtmachilar okimi va xizmatchilar yullari kesishishmasligi kompozitsion-rejaviy yechimning asosidir.

Mexmonxonalar maishiy xizmat kursatishning aloxida uziga xos turi bulib, unda xizmat kursatish va komfortga 1-4 va oliy darajagacha buladi.

Mamlakatimizning ijtimoiy va iqtisodiy taraqqiyotining tayanch omillari hisoblangan agrar masala va uning barqaror rivojini va uni bosqichma-bosqich taraqqiy ettirish mamlakatning barcha ishlab chiqarish tarmoqlariga moslab uyg'unlashtirilgan holda rivojlantirib borish murakkab masaladir.

Shahardan uzoq, o'zining ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyot yo'li avtonom ravishda shakllanib kelayotgan ba'zi qishloq aholi punktlarining juda sezilarli darajada orqada qolganligining guvohi bo'lasiz.

2009 yil avgustdagi "Qishloq joylarda uy-joy qurilishini kengaytirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" PQ 1167 qarori ijrosini ta'minlash yo'lidagi sa'yi-harakatlar tasdiqlangan namunaviy loyihalar asosida qishloqlar aholisi uchun turar joylar qurilishi borasida amalda bo'lgan tartib-qonunlarni takomil-lashtirdi va bu sohadagi barcha ishlarni yangi bosqichga ko'tardi.

Mazkur soha bo'yicha keng ko'lamdagi ishlarni amalga oshirish uchun 2009 yilda "Qishloq qurilish invest" ixtisoslashgan Sho'ba injiniring kompaniyasi tashkil etilib, hududlardan tanlab olingan 42 ta qishloq massivlarida namunaviy loyihalar asosida 847 ta yakka tartibdagi uy-joylar (uy-joy maydoni 100,971 ming kv. m) qurilishi boshlab yuborildi. Bugungi kunga qadar bu soha davom ettirilib qishloq aholisini yakka tartibda uy-joy bilan ta'minlash davom etib kelmoqda.

Birinchi Prezidentimiz tashabbusi bilan boshlangan bu ishlar uchun ulkan pul mablag'i ajratilgan bo'lib, ularni to'g'ri sarflash, qurilmalarni arxitekturaviy rejalashtirish borasida qator ishlarni amalga oshirishni taqozo qiladi. Qishloqlarini rejalashtirishda shaharsozlik qonun qoidalariga xos qishloq taraqqiyotining istiqbollari, muhit, geografik o'rnining o'ziga xosligi, reliefi, aholi sonining zichligi, milliy urf-odatlarini kabilarni oldindan ko'rish va rejaviy sxemasini mukammallashtirgan holda amalga oshirish lozim bo'ladi. Bundan tashqari qishloq qurilish yoki rekonstruktiv ishlarda ularni estetik qiyofasini tashkillashtirish ham katta ahamiyatga ega. Qishloqlarni rejalashtirish va barqaror taraqqiyotini ta'minlashda madaniy landshaftning yaxlitligini tushungan holda, uning regional aloqa tizimlari barcha kommunikativ vositalar namunaviy sxema tarmoqlariga moslanish, fazoviy kenglikning to'g'ri idrok etilishini talab qiladi. Aholi joylashuvi va taraqqiyoti bo'yicha ijtimoiy masalalarni samarali hal qilish amalga oshirilayotgan urbanizatsiyalashtirish jarayoni joylarda maqsadli boshqarishni talab qiladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, keyingi paytlarda shaharlar hududlari o'z chegaralarini beto'xtov kengaytirib, uning taraqqiyoti ta'siri qishloq hayoti faoliyatiga katta ta'sir etmoqda. Bunga sabab bugungi kunda qishloq va shaharning integratsiyasi tabiiy ravishda o'zaro bog'lanishiga talab yuzaga kelmoqda. Shuning uchun ham bu ob'ektlarning perspektiv rivojlanish masalalarini struktiv rejalashtirishda qishloq infrastrukturasini bilan uyg'unlikda

bo'lishi maqsadga muvofiq. Qishloq joylashuvi infrastrukturasini loyihalashida aholi punktini zonalashtirish ya'ni mehnat, dam olish, maishiy ta'til kabi muhim sohalari zonalarini to'g'ri rejalashtirish juda muhimdir. Qishloqlarni qayta qurishni tashkillashtirish, uning estetik qiyofasini shakllanti-rish, avtonom taraqqiyotini bartaraf etib, shahar bilan integratsiyalashda tabiiy, funksional talablardan kelib chiqish, aholi yashash punktlarini maydalarini yiriklashtirib, qishloq joylarni tabiiy resurslari va tarixiy madaniy potensialini saqlab qolgan holda ekologik, ijtimoiy va iqtisodiy masalalarini turg'unlashgan, muvozanatlashgan, komplekslashgan yangi sifatli pog'onaga ko'tarish lozim.



Ammo bugungi kunda qishloq, tuman ma'muriyati qishloq taraqqiyotida funkcionallik, landshaft yechimida bir butunlik, qishloqlararo strukturaviy tizimning uyg'unligi haqidagi tushunchalar ustida bosh qotirmaganga o'xshaydi. Hozirgi qishloqlar joylashuidagi o'ta tartibsizlik nafaqat uning estetik qiyofasini yaxshilashga, balkim uning ijtimoiy iqtisodiy, ekologik holatlarini ham bir tizimga solishga imkon bermaydi.

O'zbekiston sharoitida aholi soni kundan kunga o'sib xalq farovonligi ham ketma-ket oshmoqda. Ammo mamlakatimizda sug'oriladigan yerlar uy-joy va yo'l qurilishi hisobiga keskin kamayib, aholini kerakli oziq-ovqat maxsulotlari bilan ta'minlay olmayapti. Vodiylarda mol boqish uchun

ajratiladigan dalalar yo‘q hisobi. Bu hol bugungi kunda o‘z yechimini topishi va shuningdek (davlat dasturlarida) o‘z aksini topishi lozim. Hududlarda qishloqlar, posyolkalarning bosh rejalari ularga yaqin shaharning rejalari bilan moslangan strukturaviy ishlanmalarni talab qiladi. Demak, fikrimizcha arxitekturaviy landshaft va tegishli dizayn loyihalarini amalga oshirishdan oldin joylarda o‘rganilishi, har bir hudud o‘ziga xos demografik tahlil xulosalari asosida bajarilishi lozim. Bugungi kunni yana bir muammolaridan biri aholisi zich joylashgan qishloqlar, ayniqsa katta shaharlarga yaqin aholi punktlarida hudud yetishtirayotgan turli maxsulotlarni qayta ishlash, ulardan turli (quruq meva va boshqa oziq-ovqat maxsulotlar) eksport uchun maxsulotlar tayyorlanadigan ishlab chiqarish korxonalari tashkil etish qishloq aholisini, ayniqsa, yoshlarni o‘z manzillaridagi turg‘unligini ta‘minlagan bo‘lar edi. Landshaftni arxitekturaviy loyihalashda joy aholisining minteliteti, turmush tarzi, yer maydonlari, suv reliefi va qo‘shni aholi punktlari, loyihalanayotgan hududga yaqin shahar, hududiy o‘zaro integratsiyalashgan holda bo‘lishini ko‘zda tutish, uning perspektiv taraqqiyotini ta‘minlanishini e‘tiborga olish kerak bo‘ladi. Bugungi jamiyat taraqqiyotining jarayoni shuni ko‘rsatadiki, shahar va qishloqlararo kechayotgan aloqalar doirasida shakllanayotgan tizimlar biz xohlaymizmi, yo‘qmi kengayib boradi. Ular o‘rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy, madaniy aloqalar o‘z-o‘zidan bog‘lanaveradi. Ammo bu jarayonning stixiyali ravishda bo‘lmasdan, balkim rejaviy shakllanishini boshqarishni, bu tizimlarni ilmiy-rejaviy asosda tashkillashtirishni taqozo qiladi. Respublika qishloqlarining joylashuvi va ularning rivojlanishi an‘analarini o‘rganish shuni ko‘rsatadiki, mavjud boshqa omillardan tashqari qishloqning sifatli rivojlanishi to‘g‘ridan-to‘g‘ri shahar joylashuvi strukturalarining qanday taraqqiy etganligiga bog‘liq bo‘ladi. Shuning uchun ham qishloqni qayta qurish, infrastrukturaviy tizimini shakllantirishda uning yon shahari strukturalarini qanday taraqqiy etganligi va qishloq infrastrukturalarini o‘zaro

bog‘liqligiga qarab va qishloqning qanday rivojlanganlik darajasiga qarab differensial (tabaqalangan) holda yondashuvni talab qiladi. Uning arxitekturaviy va landshaft dizayni qiyofasi yuqorida aytilgan o‘zaro bog‘lanish darajasining chambarchasligi, qishloqning taraqqiyot darajasiga bog‘liq bo‘ladi. Shunday qilib, yuqorida qayd qilingan fikr mulohazalardan kelib chiqib, qishloqni me'moriy landshaftini va uni to‘ldiruvchi me'moriy muhit dizaynining yechimi ishlab chiqarish, sanoat ob'ektlarini, ijtimoiy-madaniy maskanlarni, maorif, bozor va boshqa strukturaviy tizimlarning chambarchasligiga bog‘liqdir.



**HAYOTIY
FAOLIYAT
XAVFSIZLIGI
QISMI**


Diplom loyiha ishi “**Namunaviy turar joy muhitining dizayn yechimi**” mavzusida bo‘lib, markaz muhitining dizayn yechimi masalasi qarab chiqilgan.

Diplom loyiha ishida qurilib faoliyat yuritayotgan binoning hozirgi zamon muhandislik talablaridan kelib chiqqan holda zilzilabardoshligini, yong‘inga xavfsizligini oshirish va yog‘in-sochinlardan muhofaza qilish qobiliyatini yaxshilash chora-tadbirlarini o‘rganib chiqib, rekonstruksiya qilinib” dizayn yechimi ko‘rib chiqilgan.

Quyida hudud uchun me'yoriy loyihani tayyorlashda ishlatilgan klimatik parametrlar keltirilgan.

Asosiy ko‘rsatgichlar	Belgilanishi	O‘lchov birligi	Qiymati
Atmosfera stratifikatsiyasiga bog‘liq bo‘lgan koeffitsient	A		200
yer relefinig koeffitsienti			1,0
Havrning o‘rtacha temperaturasi soat 13 da:			
Eng issiq oy uchun tashqaridagi havoning o‘rtacha maksimal harorati	T_i	$^{\circ} S$	+33,4
Eng sovuq oy uchun tashqaridagi havoning o‘rtacha maksimal harorati	T_s	$^{\circ} S$	- 3
Shamol tezligi, 5% takrorlanuvchanlikda aniq bo‘lgan	U^S	m/s	6
Shamolning o‘rtacha yillik tezligi	W_{sr}	m/s	2,0
Shamol yo‘nalishining o‘rtacha takrorlanuvchanligi	Sh	%	3
	ShShr	%	7
	Shr	%	36
	JShr	%	26
	J	%	7
	JG‘	%	5
	G‘	%	10

Regionning o'ziga xos meteorologik va klimatik xususiyatlariga ko'ra, yil davomida atmosfera havosidagi zararli aralashmalarni tarqalib-yoyilib ketishini qiyinlashtiradigan sharoit kam kuzatiladi. Dizayn yechimida xavoning isib ketishi, havoning sovib ketishi, yer rel'eflari, ya'ni binoning zilzilabardoshldigi, havoning tezligi va shamol yo'nalishi, quyoshning tushishi muhim o'ring egallaydi.



Shuning uchun ham diplom loyiha ishining “Hayotiy faoliyat xavfsizligi” bo‘limida biz asosiy e’tiborni har qanday joyda ham, istalgan paytda ham sodir bo‘lish ehtimoli bo‘lgan zilzilaga va tez-tez yuz beradigan yong‘in, portlash, elektr xavfsizligi, gazdan zaharlanish, havo haroratining keskin sovub va isib ketishi, kuchli qor va yomg‘ir yog‘ishi, sanitariya-gigiena talablari hamda tizimlarining ishdan chiqishi, suv bosishi kabi ofatlarga qaratamiz.

Yong‘inlar

Yong‘in – insonlar hayoti va sog‘lig‘iga tahdid soluvchi, moddiy va madaniy boyliklarni yo‘q qiluvchi ofat, nazoratdan chiqib ketgan yonish jarayoni.

Yong'in kelib chiqishi uchun quyidagi uch omilning bir vaqtning o'zida bir joyda bo'lishi yetarlidir.

Ya'ni: - yonuvchi moda (kog'oz, yog'och-taxta, neft va uning mahsulotlari);

- yonish manbai (gugurt, uchqun, alanga);

- oksidlovchi (kislorod, havo);

Yonginning oldini olish uni o'chirishdan ko'ra osonroqdir. Quyida yong'in havfi paydo bo'lganda va yuz berganda aholining harakatlari qanday bo'lishligi hakida fikr yuritamiz:

Yongingacha bo'lgan harakat:

1.Yongin va gaz havfsizligi qoidalariga rioya qiling.

2.yengil alanga oluvchi moddalar va buyumlarni issiqliq manbai yonida saqlamang. Yong'inlar kelib chiqishining sabablarini tahlili to'g'risidagi ma'lumot quyidagi jadvalda keltirilgan.

Jadval

T/r	Yong'in keltirib chiqaruvchi sabablar	Ulushi, %
1	Olov yoki yong'inga xavfli moddalar bilan e'tiborsiz munosabatda bo'lishi	35 – 45
2	Elektr o'tkazgichlari va qurilmalarining nosozligi	20 – 25
3	Gaz bilan isitish tizimlarining nosozligi	8 – 12
4	Bolalarning sho'xligi-o'yinqaroqligi	6 – 10
5	Ataylab o't qo'yishlar	5 - 8
6	Injener-energetika tizimidagi buzilishlar	5 - 8
7	Boshqa turdagi	5 – 10

Yong'inlarni tez, keng tarqalib ketishining asosiy sabablari bo'lib quyidagilar hisoblanadi:

- inshootlar loyihasini ishlab chiqishda yo'l qo'yilgan xato va kamchiliklar;

- inshootlar qurilishida Qurilish me'yorlari va qoidalari hamda davlat standartiga rioya qilmaslik;

-yong'in nazorati, gazdan foydalanishni nazorat qilish xodimlari tomonidan ko'rsatilgan, yong'inning oldini olish tadbirlarining bajarilmasligi;

- fuqarolarning yong'in sodir bo'lganda o'z vazifalarini bilmasliklari va vahimaga tushib qolishlari;

- bolalarning yong'in chiqishiga olib keluvchi uyinlariga kattalarning beparvolik bilan qarashi;

- yong'inga qarshi

kurashda qo'llaniladigan o'chirish va qutqarish vositalarining yetishmasligi.

Yong'inning oldini olish chora-tadbirlariga quyidagilar kiradi:

- yong'in va portlashga xavfli bo'lgan barcha ob'ektlarni inventarizatsiyalash (korxona yoki muassasaga qarashli mol-mulkni hisobga olish, ro'yxat qilish), pasportlashtirish va deklaratsiyalashtirish (kerakli ma'lumotlarni o'z ichiga olgan rasmiy hujjat tuzish);

- tashkilot va muassasalarda doimiy ravishda davlat maxsus tekshiruv idoralari tomonidan yong'in va portlashning oldini olish bo'yicha tekshiruvlar o'tkazish, yong'in chiqishi va portlashlarga sabab bo'luvchi kamchiliklarni aniqlash, zudlik bilan bartaraf etish va ularga yo'l qo'ymaslik;

- Qurilish me'yorlari va qoidalari, davlat standartlariga doir maxsus buyruqlarni so'zsiz bajarish;

- yong'indan muhofaza qiluvchi idoralarning xodimlari bergan ko'rsatmalarni bajarish, eng asosiysi yong'inga olib keluvchi vaziyatlarni maxsus kuchlar tomonidan birinchi navbatda bartaraf etish bo'yicha qilinadigan ishlarni bajarish;

- yong'inni bartaraf etish chora-tadbirlarini bilish, qolaversa yong'inni o'chirish uchun birinchi daqiqada bir piyola, ikkinchi daqiqada bir chelak suv yetarli bo'lishini, uchinchi daqiqada esa bir sisterna suv ham yetmay qolishi mumkinligini yodda tutish;

- aholining barcha tabaqasini muntazam ravishda yong‘inning oldini olish chora-tadbirlarini bajarish bo‘yicha o‘rgatib borish.

Yong‘inga qarshi kurashda va uni bartaraf etishda quyidagi qoidalariga amal qilish katta samara beradi:

- yong‘in keng tus olib ketmasligi uchun yonayotgan joyning tevarak-atrofini suv va boshqa yonmaydigan qorishmalar hamda moddalar bilan sovitib, yonishiga yo‘l kuymaslik;

- yonayotgan hududni ko‘pik, kukun, qum, qalin mato va havo o‘tkazmaydigan boshqa narsalar bilan ajratib, yakkalab quyish;

- yon-atrofdagi barcha tez yonuvchi jihozlarga, inshootlarga maxsus ko‘pik-kukunli, ishqorli suv sepish;

- yonish reaksiyasini kimyoviy yo‘l bilan sekinlashtirish.

Yong‘in o‘choqlarining paydo bo‘lishi va yong‘inning rivojlanishi bino-inshootlarning o‘t (olov)ga chidamlilik darajasi va ishlab chiqarish jarayonlarining yong‘inga havfliligidan ham bog‘liq bo‘ladi.

Barcha qurilish materiallari o‘tga chidamliligi jihatidan uch toifaga bo‘linadi:

- **yonmaydigan** – beton, pishiq gisht, marmar kabilar olovning ta'sirida yoki yuqori haroratda yonmaydi, tutamaydi va erimaydi;

- **kiyin yonuvchan** – bu materiallar yuqori harorat ta'sirida qiyinchilik bilan uchqunlanadi, tutaydi va ko‘mirlanadi hamda olov manbai bo‘lgandagina yonishda davom etadi. Bularga DVP, DSP va boshqalar kiradi;

-**yonadigan** – bularga yog‘och materiallari, sellyuloza, plastmassa, tol kog‘oz, bitumlar kiradi.

Bino va inshootlar o‘tga chidamliligi jihatidan besh darajaga bo‘linadi:

Jadval

O'tga chidam-lilik darajasi	Bino va inshootlarning qismlari			
	Zinalar	Zina va zina maydonlari	Qoplama tuzilishlari	Qoplama qismlari
I	3soat yonmaydigan	1soat yonmaydigan	1soat yonmaydigan	0,5soat yonmay- digan
II	2,5soat yonmaydigan	1soat yonmaydigan	0,25soat yonmaydigan	0,25soat yonmay- digan
III	2soat yonmaydigan	1soat yonmaydigan	0,25soat yonmaydigan	yonadigan
IV	0,5soat kiyin yonadigan	0,25soat kiyin yonadigan	0,25soat kiyin yonadigan	yonadigan
V	Yo n a d i g a n			

Amaldagi tartib va qoidalarga ko'ra yonadigan va yengil yonadigan qurilish materiallarining jamoat joylarida, bolalar muassasalari va shifoxonalarda ishlatilishi qat'iyan man etiladi.

O'tni o'chirishni dastlabki uskunalari.

O'tni o'chirish uskunalari: qo'lda ishlatiladigan birlamchi vositalar; bir joyda muqim o'rnatiladigan va mexanik yoki avtomatik harakatga keltiriladigan uskunalar; harxil masofadagi hududlarda harakatlanaoladigan ko'chma uskunalar va boshqalarga bo'linadi.

Birlamchi o't o'chirish vositalariga, tashkilot ishchi va xizmatchilari yoki ixtiyoriy yong'in drujina (IYoD-DPD) a'zolari tomonidan ishlatishga mo'ljallangan, yong'inga qarshi «qalqonlar»da izohlangan oddiy asboblardan, maxsus yeng va dastaklar bilan jihozlangan ichki o't o'chirish kranlari va boshqa uskunalardan kiradi.

Ma'muriy binolar va sanoat korxonalarida, yonuvchi ashyolar va portlovchi moddalar saqlanadigan omborxonalar hududida, yong'in xavfi mavjud bo'lgan joylarda o't o'chirishda qo'llaniladigan asboblarni o'rnatilgan, «yong'inga qarshi qalqon» chizma da aks ettirilgan.

Yong'inga qarshi «qalqon» va undagi asboblarni o'rnatilishi.

Unda yong'in havfsizligi me'zonlariga ko'ra quyidagi o't o'chirish vositalari va asboblari zarur bo'lganda oson olinadigan qilib osib qo'yilgan bo'lishi shart:

- 2 dona qo'lda ishlatiladigan ko'pikli o't o'chirgich;
- 1 dona karbonat- angidridli o't o'chirgich;
- 2 tadan misron va ilgakli changaklar;
- 2 ta bolta; 2 ta yong'inga qarshi suv uzatgich elastik yenglar;
- 2 ta maxsus tayyorlangan konussimon chelaklar;
- 2 ta bel kurak; 1 ta bochkada suv va 1 ta qutida qum va h.o.




Рис. 60. Пожарный пункт и размещение инвентаря:
1 — песок; 2 — огнетушители; 3 — доска правил пожарной безопасности; 4 — бочка; 5 — рукава; 6 — багры; 7 — ствол пожарный; 8 — доска-график работы ДПД.

Bunday qalqonlar ma'muriy binolarning hovli tomonidan, binoga kirish eshigiga yaqin joyda o'rnatiladi. Ishlab chiqarish korxonalarida, yong'in xavfi

mavjud bo'lgan sexlar va omborxonalarga kirish eshiklariga yaqin joylarda o'rnatiladi. Himoyalalanayotgan hududning har 5000 kvadrat metriga 1 ta «qalqon» xisobidan loyihalashtiriladi.

Undagi suv bochkasining hajmi 200 l dan kam bo'lmasligi kerak, qum solinadigan qutining hajmi esa 2-3 m³ atrofida bo'ladi.

O't o'chiruvchi ko'piklar. Kimyoviy yoki havoli mexanik ko'piklar, ko'pik hosil qiluvchi kukunlarni suyuq muhitda eritish yo'li bilan hosil qilinadi. Buning uchun tarkibida javhar o'rnini bosuvchi alyuminosulfat $Al_2(SO_4)_3$ bilan ishqor o'rniga natriy bikarbonat $NaHCO_3$ moddalarining quruq holatdagi qorishmalaridan tayyorlangan kukun, maxsus moslamalarda bosim ostida suvga aralashtirib, elastik quvurlarda oqiziladi. +o'lda o't o'chirish balonlarida ko'pik hosil qiluvchi javhar qismida, sulfat javhari H_2SO_4 yoki sulfat tuzi bilan oksidlangan temir $Fe_2(SO_4)_3$ moddalarining aralashmasi ishlatiladi.


Yong'in darakchilari va aloqa tizimi

Yong'inni oldini olish va uning dahshatli asoratini kamaytirishda bosh omil sifatida darakchi uskunalar va tezkor aloqa vositalari xizmat qiladi. Yong'inni oldini olish maqsadida, uning kelib chiqish jarayonlarini nazorat qilishni passiv va

aktiv usullarga bo'lish mumkin. Passiv nazorat usuli, inson tafakkuri va uning intizomiga bog'liq bo'lib, yong'in o'choqlarini aniqlash va o't o'chiruvchilarni 01 raqamli telefon orqali (shahar sharoitida) va uzluksiz zang urish yo'li bilan (dala, qishloq sharoitida) yordamga chaqirishdan iborat bo'ladi.

Faol nazorat usuli esa yuqori aniqlik bilan ishlaydigan texnik vositalarni qo'llashga asoslangan. Bunda yong'in o'chog'ini aniqlash va o't o'chiruvchi xizmat yordamini chaqirish, odam omiliga bog'liq bo'lmasdan, avtomatik tezkor tarzda bajariladi. Shu maqsadda, yong'in xavfi mavjud bo'lgan joylarda yong'inni dastlabki belgilarini aniqlab markaziy boshqaruv pultiga belgilangan xabarni yetkazib beradigan darakchilar o'rnatiladi. Darakchilar qo'riqlanayotgan

xonalarda oʻrnatilgan boʻlishi va qorovulxonada oʻrnatilgan qabul punkti bilan aloqa tarmogʻi orqali bogʻlangan boʻlishi kerak. Bunday tizimlarni ishlash qobiliyati doimiy nazorat ostida boʻlib, yongʻinni «kutish» tartibida kechadi.



РАСМ-102. ДТЛ хабарловчиси.

Chizma DTL rusumli yongʻin daraklagichi

Yongʻin darakchilari oʻzlarining ishlash uslubiga binoan shartli ravishda 4-ta guruhga, yaʼni issiqlik, yorugʻlik, gaz va tutundan ishlaydigan turlarga boʻlinadi. Oʻzbekistonda ilk bor 1960 yilda haroratni taʼsiridan yengil erib ketuvchi «Vuda» qorishmasi asosida ishlaydigan, DTL rusumli yongʻin daraklagichlari ishlab chiqarilaboshlangan edi (chiz 32). DTL bir marta qoʻllanishga moʻljallangan boʻlib, xonaning harorati 72°S dan oshgandan keyin, uning markazida

joylashgan, spiralsimon oʻtkazgichni aloqa zanjiriga bogʻlab turuvchi, haroratga oʻta sezgir boʻlgan maxsus qorishma erib ketishi oqibatida, zanjir uziladi va nazorat pultiga yongʻin xavfi paydo boʻlganligi haqida xabar beradi. Bitta DTL daraklagichi 15m² gacha yuzani qoʻriqlashga qodir.

DTL darakchilari atroflicha oʻrganilib, kamchiliklarini bartaraf etish maqsadida 1984 yildan boshlab mukammallashtirilgan issiqlik taʼsirida ishlaydigan IP-101, IP-102, IP-103, IP-104 va IP-105 rusumli yongʻin darakchilari ishlab chiqarilaboshlandi. Bularning barchasi qoʻriqlanayotgan

muhitning harorati 70-72°S dan ko'tarilgan zahoti yong'in xavfi paydo bo'lganligi haqida markaziy pultga avtomatik tarzda xabar berish uchun mo'ljallangan [L10].

yer silkinishi (zilzila) va uning oqibatlari

Tabiiy ofatlar ichida eng xavflisi va dahshatlisi bu – yer silkinishi(zilzila)dir. yer silkinishi – yer osti zarbasi va yer ustki qatlamining tebranishi bo'lib, tabiiy ofatlar, texnologik jarayonlar tufayli vujudga keladi. yer ostki zarbasining paydo bo'lish o'chog'i, yerning ostki qatlamida uzoq vaqt yig'ilib qolgan energiyaning yuzaga otilib chiqish jarayoni tufayli yuzaga keladi. O'choqning ichki qismi markazi gipotsentr deyiladi, yerning ustki qismidagi markazi epitsentr deyiladi.

yer silkinishi yuzaga kelish sabablariga ko'ra quyidagi guruhlarga bo'linadi:

- Tektonik zilzilalar;
- Vulqon zilzilalari;
- Ag'darilish, o'pirilish zilzilalari;
- Texnogen(insonning muhandislik faoliyati bilan bog'liq) zilzilalar.

Yuqorida aytib o'tilgan yer silkinishi turlari ichida katta maydonga tarqaladigani va eng ko'p talofat keltiradigani tektonik yer silkinishidir. Ma'lumki, har yili planetamizda 100 000 dan ortiq yer silkinishlarini seysmik asboblari(seysmograflar) qayd etadi. Bulardan 100 tasi vayron qiluvchi fojia bo'lib,

imorat va inshootlarning buzilishiga, yer yuzasida yoriqlarning paydo bo'lishiga, ming-minglab insonlar yostig'ining qurishiga olib keladi.

yer silkinish o'chog'i gipotsentrning joylashgan chuqurligi bo'yicha zilzilalarni: yuzaki – 70 km.gacha, o'rta – 70-300 km. va chuqur – 300 km.dan pastda “mantiya” qatlamida vujudga keladigan turlarga ajratish mumkin. Respublikamizda kuzatiladigan zilzilalarning o'chog'i asosan 70 km.gacha chuqurliklarda joylashganligi qayd etilgan.

Kuchli yer silkinishi oqibatida yerning yaxlitligi, butunligi o'zgaradi, inshootlar, jihozlar buziladi, kommunal-energetik qismlar ishdan chiqishi, insonlar o'limi yuz beradi. yer qimirlashning asosiy ko'rsatkichlari quyidagilardan iborat: yer silkinish o'chog'ining chuqurligi, silkinish amplitudasi va yer silkinishining intensiv energiyasi.

yer silkinishining kishilar ruhiy holatiga bo'lgan ta'siri, imorat va inshootlarning buzilishi, vayron qilinishi, yer yuzasida vujudga kelgan o'zgarishlar (yer sathida yoriqlar va buloqlarning paydo bo'lishi) insonlarga yuz bergan hodisalarning kuchini baholashga o'rgatgan. Natijada nisbiy baholash shkalasi paydo bo'lgan.

Zilzila kuchi ikki xil o'lchov birligida o'lchanadi:

1. Ballarda;
2. Magnitudada.

Dunyoning juda ko'p davlatlarida yer silkinish kuchi 12 balli xalqaro o'lchov birligida o'lchanadi.

Ball – yer yuzasining tebranma harakat darajasini ko'rsatadi. Silkinishkuchini ballarda o'lchashda “seysmograf”lardan foydalanib, tog' jinsi zarrachalarining tebranma harakat tezligi topiladi. Ya'ni yozib olingan “seysmogrammalar” orqali zarrachalarning tebranish amplitudasi aniqlanadi va shu asosida seysmik to'lqin tezlanishini quyidagi formula orqali hisoblab chiqarish mumkin.

$$\alpha = 4\pi^2 A/T^2;$$

bunda, α – seysmik to'lqin tezlanishi, m/s^2 ;

A – tog' jinsi zarrachasining tezlanish amplitudasi, mm;

T – seysmik tebranish davri, s;

$$\pi = 3,14.$$

yer silkinishining ofat o'choqlari deb, binolar, inshootlar va boshqa xil ob'ektlarning shikastlanishi va buzilishi natijasida odamlarning, hayvonlarning

va o‘simliklarning jarohatlanishi hamda o‘limi yuz beradigan hududlarga aytiladi.

Inshootlar ko‘radigan talofatlar quyidagicha tavsiflanadi:

1- darajali talofat. Bunda yengil shikastlanish yuz beradi.

2- darajali talofat. Og‘ir bo‘lmagan shikastlanish sodir bo‘ladi, devorlarda katta bo‘lmagan yoriqlar paydo bo‘ladi.

3- darajali talofat. Inshootlarning og‘ir shikastlanishi yuz beradi, devorlarda katta va chuqur yoriqlar paydo bo‘ladi.

4- darajali talofat. Imorat va inshootlar ichki devorlarining to‘liq buzilishi yuz beradi.

5- darajali talofat. Imorat va inshootlarning to‘liq buzilishi sodir bo‘ladi.

Imorat va inshootlar konstruksiyasi va qurilish materiallariga qarab quyidagicha tavsiflanadi:

A guruh – xom g‘isht, paxsa devorli imoratlar;

B guruh – pishiq g‘ishtdan qurilgan inshootlar;

V guruh – temirbeton, sinchli va yog‘ochdan qurilgan inshootlar.

Yuqorida aytilganlarni hisobga olgan holda davlat standarti (GOST) tomonidan imoratlar guruhining har bir balda ko‘radigan talofat darajalari qonunlashtirib qo‘yilgan. Jumladan:

6 ball – yer silkinish jarayonida A guruhga mansub inshootlar 2-darajali talofat, B guruhi inshootlari 1-darajali talofat ko‘radi.

7 ball – A guruhidagi inshootlar 3-darajali talofat ko‘radi.

8 ball – A guruhidagi inshootlar 5-darajali, B guruhidagi inshootlar 3, 4-darajali, V guruhidagi inshootlar 2-darajali talofat ko‘radi.

9 ball – B guruhidagi inshootlar 4-darajali, shuningdek, V guruhidagi inshootlar ham 4-darajali talofat ko‘radi.

10 ball – B guruhidagi inshootlar 5-darajali, V guruhidagi inshootlar 4-darajali talofat ko‘radi.

11 ball – B guruhidagi inshootlar to‘liq qulaydi. Tog‘ jinslarining tik va gorizontal yo‘nalishdagi harakati kuzatiladi.

12 ball – amalda yer yuzasida tik inshoot qolmaydi.

Aytib o‘tilgan fikrlar u yoki bu ballarda yer silkinishi sodir bo‘ladigan hududlarda ko‘riladigan talofat darajasi hisobga olingan holda, faqat ma‘lum guruhdagi inshoot va imoratlar qurilishi lozim degan so‘zdir.

Inshootlar yer silkinishiga bardosh berish xususiyatiga ko‘ra

3 guruhga bo‘linadi:

A) 7 ballgacha chidaydigan kuchsiz seysmochidamli uylar. Bunga tuproqdan, g‘ishtdan qurilgan uylar kiradi.

B) 8 ballgacha chidaydigan uylar. Bu xildagi uylar har xil yog‘och karkaslardan tayyorlanadi(sinchli uylar).

V) 9 ballgacha chidaydigan seysmochidamli uylar. Bu xildagi uylarga katta metall karkaslardan tayyorlanadigan, temir-beton konstruksiyalardan qurilgan inshootlar kiradi.

Ob'ektlarda yuz berishi mumkin bo‘lgan shikastlanishlarning ko‘lamini va xususiyatini bashorat qilishda, ko‘plab bino va inshootlarning kuchsiz shikastlanishidan boshlab, ularning butunlay buzilib ketishigacha olib keladigan oraliq(interval)dagi intensivlikning aniq qiymatlarini hisoblash mumkin.

Zilzilaning bino va inshootlarga mexanik ta'sirlari hamda uning zararli ta'sirlariga qarshi chora-tadbirlar, zilzila sodir bo‘lganda qanday hatti-harakatlar qilish zarurligi to‘g‘risida mutaxassislar tomonidan o‘rganib chiqilgan yo‘llanmalar quyidagicha.

Yuqorida aytib o‘tilganlardan xulosa qilinadigan bo‘lsa, mazkur diplom loyiha ishini bajarish mobaynida Samarqand shahrining seysmoaktivlik xaritasidan hamda bu joylarda bo‘lib o‘tgan zilzilalar to‘g‘risidagi ma'lumotlardan foydalangan holda ish olib borish lozim bo‘ladi. Ya'ni diplom

loyihasida binoning qurilish joyi, yerning muhandislik-geologik ma'lumotlari va seysmoaktiv hududlarda qurilish ishlarini olib borishda davlat tomonidan tasdiqlangan qonun-qoidalarga, talablarga rioya qilinmog'i zarur.

EVAKUATSIYA CHIKISH JOYLARI VA YULLARINING MIQDORI VA O'LCHAMLARINI ANIQLASH, QMQ TALABLARI

Zilzila, yong'in va suv toshqinlari kabi favqulodda vaziyatlar sodir bo'lgan taqdirda bino va inshootlarda yashaydigan yoki ishlaydigan aholini muhofaza qilishda katta samaradorlikka ularni evakuatsiya qilish orqali erishiladi. Shuning uchun ham qurilishlarni loyihalashdagi asosiy vazifalardan biri bu – FVda binolardan aholini evakuatsiya qilish yo'llarining rejaviy-konstruktiv yechimini ishlab chiqilishidir.

HUDUDNING EVAKUATSIYA REJASI

Har qanday maqsadda qurilgan binolar (yashash, ishlab chiqarish va maishiy xizmat ko'rsatish joylari)da ham odamlarning harakatlanishini muhim jarayon deb qarash zarur. Harakatlanish jarayonining kechadigan sharoitidan bog'liq ravishda ikki turi mavjud. Birinchisi odatiy harakatlanish, ikkinchisi esa–majburiy harakatlanish. Bino va inshootlardagi oddiy ish sharoitlarda kishilarning odatiy harakatlanishi sodir bo'ladi. Favqulodda vaziyatlar sharoitida esa kishilarning hayotiga xavf tahdid solishi sababli, majburiy harakatlanish amalga oshiriladi.

Aholini evakuatsiya qilish deb nomlanuvchi, majburiy harakatlanish o'ziga xos xususiyatlarga ega. Ofat (xavf) manbaidan xavfsiz joyga harakatlanib odamlarning tashqariga chiqishida xonadan-xonaga eshiklar orqali, o'tish yo'laklari va karidorlar bo'ylab yurib, zinapoyalardan tushishiga to'g'ri keladi. Bu yo'llar va chiqish joylari ma'lum talablar bajarilgan taqdirda evakuatsiya yo'llari deyiladi. Yuz bergan FVning turiga bog'liq ravishda harakatlanish mobaynida odamlarga ta'sir etuvchi xavf va odamlar oqimining miqdori o'zgarib boradi. Bu o'zgarish binolarning mo'ljallanishi, odamlar oqimining tarkibi va turiga hamda evakuatsiyaning bosqichiga bog'liq ravishda har xil kechadi.

Evakuatsiya chiqish joylarining eng kam miqdorini aniqlash uslubini me'yorlar talablari bilan asoslash lozim. Xonalar, qavatlar va binolardagi evakuatsiya chiqish joylari miqdori va umumiy kengligi ular orqali olib chiqiladigan odamlarning ehtimol tutilgan eng ko'p sonidan va yo'l qo'yish mumkin bo'lgan chegaraviy masofadan, odamlar bo'lishi ehtimoli bo'lgan, eng uzoqdagi (ishchi o'rni) joydan eng yaqin evakuatsiya chiqish joyigacha bo'lgan masofadan kelib chiqib aniqlanadi.

Qavatdan evakuatsiya chiqish joyi, agar unda ikkitadan kam bo'lmagan evakuatsiya chiqish joyiga ega bo'lishi kerak.

Ikki va undan ortik evakuatsiya chiqish joylari bo'lsa, ular tarqoq holda joylashtirilishi shart.

Zina kataklari tashqi eshiklari va zina kataklaridan vestibulga chiquvchi eshiklar eni xisoblangandan yoki zinapoya enidan kam bo'lmashligi lozim.

Evakuatsiya chiqish eshiklari va boshqa evakuatsiya yo'lidagi eshiklar binodan chiqish yo'nalishida ochilishi kerak.

Eshiklarning ochilish yunalishi quyidagilar uchun me'yorlanmaydi:

- ko'p xonadonli va bir xonadonli uy-joy xonalari uchun;
- bir vaqtda 15tadan kam odam kelib turadigan xonalar uchun, A va B toifadagi xonalardan tashqari;
- sanitariya tarmoqlari uchun;
- 3 - turdagi zinalar maydonchasiga chiqish uchun.

Odamlar oqimining harakat tezligi yo'l turidan va odamlar oqimi zichligidan kelib chikadi. Odamlar oqimining chegaraviy zichligida odamlar to'planmasligi uchun harakat tezligi quyidagilarni tashkil etadi:

- gorizontal yo'l uchun 15m/daqiq
- zina orqali pastga 8m/daqiq
- zina orqali yuqoriga 11 m/daqiq

Odamlar oqimi intensivligi, evakuatsiya yo'lidagi 1 metr eshik orkali 1 daqiqa ichida o'tuvchi odamlar sonini ta'riflaydi.

Zaruriy evakuatsiya vaqti deb, u tugagandan so'ng yong'in paytida ishchi mintaqada odamlar hayoti va salomatligi uchun yonishga havfli omillari paydo bo'ladigan vaqtga aytiladi.

Elektrdan jarohatlanganda dastlabki tez yordam

Elektrdan jaroqatlangan kishini darhol tokning ta'siridan xalos etib toza havoga, quruq yerga yoki taxta ustiga yotqizish lozim bo'ladi. Agar jaroxatlanuvchining nafas olishi va tomir urishi sezilib tursa, uni orqasiga qulayroq yotkizib, ko'krak tugmalarini va kamarini yechib toza havodan nafas olishiga va tinchligiga xalaqit bermaslik kerak. Doim axvolidan, yurak urishi va nafas olishidan

xabardor bo'lib turmoq talab qilinadi. Nashatir bo'lsa hidlatish mumkin. Agar jarohatlanuvchi nafas olmasa yoki o'qtin-o'qtin xirillashi sezilsa, darhol uni og'zini ochib, tilini tekshirish zarur, agar til tanglayga tiqilib, nafas yo'lini to'sayotgan bo'lsa darhol tilini oldiga tortib, kekirdak yo'lini ochish kerak. Shu tariqa havo yo'li ochiqligi aniqlangandan keyin sun'iy nafas oldirish bilan birga yurakni «massaj» qilish kerak bo'ladi.

Tokdan ajratib olish

Elektr tarmog'iga ulanib, hush - behush holatda turgan odamni qanday qilib xalos etish mumkin? Bunday hollarda 1-rasmda ko'rsatilganidek, o'chirgich, ajratgich (rubilnik) yoki probkani chiqarib olish yo'li bilan tokni tez o'chirish kerak bo'ladi (1-rasmda 1,2,3). Agar buni imkoniyati bo'lmasa, biror bir quruq tok o'tkazmaydigan vosita, yog'och yoki plastmass tayoq yordamida elektr simini ajratish, yoki bolta bilan kesib jaroxatlanuvchini elektr zanjiridan ozod qilish kerak bo'ladi (1-rasmda 4,5,6). Agar bordi-yu jarohatlanuvchi elektr zanjiriga o'tkazgichni kafti bilan ushlagan holda ulanib qolgan bo'lsa, uni zinhor musht holatida simni siqib turgan panjalarini qo'lingiz bilan ochishga urinmang! Bu o'zingiz uchun ham xavflidir, siz ham zanjirga ulanib qolishingiz muqarrar! Asab va pay tolalari qisqarib panjalarni bukib qo'yganda ularni qayta tiklash oson bo'lmaydi.

Shuning uchun bunday hollarda oyoqqa rezina etik, yo kalish kiygan xolda yoki rezina gilamchani tokli sim ustidan to'shab, uning ustiga oyoq bilan chiqib, jarohatlanuvchining quruq yengidan yoki rezina qo'lqop kiygan bo'lsangiz uni bilagidan yuqoriroq joyidan ikki qo'llab kuch bilan ajratib olishingiz mumkin.

Bu ishlarni bajarishdan oldin tok o'tkazuvchi hamma faza simlarini oldindan maxsus tayyorlangan (bu moslama elektr xavfi yuqori bo'lgan har bir ish joyida tayyor turishi kerak) o'tkazgich yordamida birlashtirgan qolda jaroqatlanuvchi yotgan joydan eng kamida 10 m nariroqdan yerga ulab qo'yish kerak bo'ladi. Bu tadbir odamni tokdan ajratib olish vaqti cho'zilib qolgan taqdirda unga ta'sir etayotgan tokning kuchini qirqadi.

EKOLOGIYA

QISMI

Diplom loyixasining mavzusi: ***Namunaviy turar joy muhitining dizayn yechimi***

Ekologiya qismi buyicha

Loyixa kilinayotgan ob'ekt qurilishining atrof-muxitga ta'sirini baxolash va ekologik taxlil qilish.

Loyixa qilinayotgan ob'ekt qurilishining atrof-muxitga ta'sirini baxolashda quyidagilarni o'rganib chiish va bajarish talab etiladi:

- 1.Loyixa kilinayotgan ob'ekt kuriladigan joyning (xududning) fiziko-geografik va iklim sharoitlari;
- 2.Xududning ekologik xolati va mavjud ta'sir etuvchi manbalar;
- 3.Xududning tuprogi,yer osti va yer usti suv resurslari;
- 4.Xududning o'simlik va xayvonot dunyosi,axoli salomatligi;
- 5.Xududning mavjud tabiiy ekologik xolatini baxolash;
- 6.Loyixa yechimini va texnologik yechimning alternativ variantlarini ekologik taxlil kilish;
- 7.Ob'ekt kurilishida atrof-muxitga ta'sir etuvchi omillarni (kimyoviy moddalar,shovkin,tabiiy resurslardan foydalanish,kattik chikindilar) baxolash;
- 8.Kurilish davomida va ishlab chikarishda ro'y berishi mumkin bo'lgan avariya (xalokatli) xolatlarni va ularning atrof-muxitga ta'sirini taxlil kilish;
- 9.Ob'ekt kurilishining atrof-muxitga ta'sir etish xarakteri;
10. Ob'ekt kurilishining atrof-muxitga salbiy ta'sirini kamaytirish bo'yicha tadbirlar va takliflar;
- 11.Ob'ekt kurilishidan so'ng xududning ekologik xolatini oldindan taxlil kilish.

1. Loyixa kilinayotgan ob'ekt kuriladigan joyning (xududning) fiziko-geografik va iklim sharoitlari;

Loyixa kilinayotgan ob'ekt Samarqand viloyatida kuriladi.

Ob'ektdan ma'lum bir masofada xiyobon joylashgan.

Iklim sharoiti keskin kontinental, zaharli moddalarning biologik faolligi ta'siri umumiy va mahalliy.

2. Xududning ekologik xolati va mavjud ta'sir etuvchi manbalar;

Loyixa kilinayotgan ob'ekt joylashadigan rayonda turar joy binolari joylashgan.

Kurilish maydoniga yaqin korxonalar: magistral ko'cha va korxona idoralari.

Bu korxonalardan atrof-muxitga quyidagi ifloslanuvchi moddalar va chikindilar tashlanadi: Avtomobillardan chiqadigan zaharli gazlar.

Undan tashkari tuprok erroziyasi, kimyoviy va meniral ug'itlar ishlatilishi ta'sirida yerning kimyoviy ifloslanishi.

Avtomobil transportlaridan quyidagi yokilgi koldik moddalari atmosferaga tashlanadi: 200 xil zaharli moddalar va birikmalar.

3. Xududning tuprogi, yer osti va yer usti suv resurslari;

Kurilish joyining tuprogi: yerning eng 1,0-1,5 metri o'simlik chikindilaridan iborat unumdor tuprok, ikkinchi pastki katlami mikroorganizmlar, uchinchi katlam minerallardan iborat.

yer osti suvlari 12 metr chuqurlikda joylashgan. Beton va kurilish konstruksiyalariga nisbatan agressiv emas. yer osti suvi korbanatli. yer osti suvlarini ichimlik uchun ishlatish mumkin.

Kurilish maydoniga yaqin joydan yer ustki suv xavzasi qurilishi mo'ljallangan.

4. Xududning o'simlik va xayvonot dunyosi, axoli salomatligi;

yerning yukorgi unumdor tuprok kismi sho'rlanmagan, kuchli yerroziya kuzatilmagan.

Ko'p yillik o'simliklardan mevali daraxtlar, uzum, madaniy manzarali daraxtlar (archa, kayin, kashtan) tol, terak, akatsiya, zarang, archa va h.k.

Kurilish rayoni axolisi salomatligi sog'likni saklash departamenti tomonidan berilgan ma'lumotlarga muvofiq respublikamizda uchraydigan ko'pchilik kasalliklar bo'yicha foiz xisobida viloyat va respublikadagi ko'rsatkichga nisbatan ancha past, lekin ba'zi bir kasalliklar asab kasalliklari bo'yicha yukori foizga ega. Sababi, shovqin.

Loyixa kilinayotgan ob'ekt kuriladigan joyning fiziko-geografik va iklim sharoitlari,tuprogi,yer ostki va yer ustki suv xavzalari,o'simlik va xayvonot dunyosi,mavjud ta'sir etuvchi omillar o'rganib chikildi.Umuman olganda xududning mavjud ekologik xolati konikarli,atrof-muxitga sal'biy ta'sir ko'rsatadigan manbalar kuzatilmadi.

6. Loyixa yechimini va texnologik yechimning alternativ variantlarini ekologik taxlil qilish;

Diplom loyixasi bo'yicha
mahalla markazi kurilishi rejalashtirilgan.

Ob'ekt bo'yicha batafsil ma'lumot: Ob'ekt 1 ta asosiy bino, hududning landshaft dizayni, binoning kompleks dizayn yechimi, bino intererlari yechimi. Ob'ekt poydevori quyma beton, devori metall konstruksiya, g'isht, sendvich panellar, tom yopma monolit.

Kurilish jarayoni quyidagi asosiy texnologik bosqichlardan tashkil topadi:

Kurilish maydoni o'lchamlarini aniklash:

- Poydevorlar uchun zavur kazish;
- Poydevorlar tagidagi zaminni mustakamlash va tekislash;
- Bino devorlarini ko‘tarish va tomini yopish;
- Suvok va pardoz ishlarini olib borish;
- Elektr,suv ta'minoti va tabiiy gaz tarmoklarini o‘tkazish;
- Kuchalarni tekislash va obodonlashtirish.

Ob'ektning umumiy yer maydoni shundan, ko'kalamzorlashtirilgan maydon $F_{zel.n} = _m^2$,kurilish egallagan maydon $F_{str} = _m^2$,kattik koplamali (asfaltlangan,plitka yotkizilgan va x.k.)

Ob'ekt kurilishida loyixa kilingan yechimga alternativ bo'lgan yechimni ekologik nuqtai nazaridan takkoshlash (masalan, bino tomi yopilmasi loyixada prof.nastildan kurilishi ko'zda tutilgan. Alternativ variant-shiferdan. Takkoshlash:

prof.nastil-ruxlangan po‘lat list zanglamaydi, ranglash talab kilinmaydi, yengil, montaj ishlari ancha tezlashadi.Alternativ variant-shifer transpartirovka va montaj vaktida ko‘p sinadi.Eng asosiysi shifer tarkibida asbest moddasi bor. Asbest xavflilik toifasi bo‘yicha birinchi toifaga mansub, atrof-muxitga va kishi salomatligiga sal'biy ta'sir ko‘rsatadi).

7. Ob'ekt kurilishida atrof-muxitga ta'sir etuvchi omillarni (kimyoviy moddalar, shovkin, tabiiy resurslardan foydalanish, kattik chikindilar) baxolash;

Ob'ekt kurilishida atrof-muxitga ta'sir etuvchi asosiy manbalar;

-foydalaniladigan yerning ma'lum bir kismini kurilishga olish

-kurilish yer maydonining tabiiy xolati buzilishi;

-yer kazish va montaj ishlarini bajarishda xamda kerakli materiallarni tashishda transport vositalarining ishlashi natijasida atrof-muxitga ko‘p mikdorda zararli yokilgi koldik moddalari va xar xil changlar tashlanadi.Undan tashkari transport vositalari shovkin manbai.

-kurilish jarayonida suv resurslaridan foydalanish, suv olish va okava chikazish;

-kurilishda xar xil kimyoviy lok-buyok moddalardan foydalanish natijasida atrof-muxitga ko‘p mikdorda kimyoviy zararli moddalar tashlandi;

-kurilish davomida ko‘p mikdorda kattik chikindilar (gisht siniklari, beton koldiklari,kurilish buyumlari koldilari) xosil bo‘ladi.

a) foydalaniladigan yer maydoni _

b) ob'ekt kurilishiga va ob'ektdan foydalanishda olinadigan toza suv mikdorlari va okava suvlar.

Ta'mirlanadigan bino tomonidan suv ta'minoti tarmogidan olinadigan suv asosan ichimlik-xo‘jalik,yonginni o‘chirish va xovli va ko‘chalarni sanitar

xolatini talab darajada saklash,daraxt va ko‘kalamzorlarni sugorish maksadida foydalaniladi.

Foydalanishga olinadigan suvning mikdori bu yerdagi iste'molchilar soni va sanitar asboblari bilan jixozlanish darajasiga boglik va uning me'yoriy mikdori 1.1-jadvalda

ko‘rsatilgan.

Ichimlik suvi ta'mirlash davrida shaxar suv ta'minoti tarmogidan keltiriladi.

Kurilish tugagach bu bino xam shu tarmokka ulanadi.

Ob'ekt tomonidan foydalanishga olinadigan suvning kunlik mikdori

1.1-

jadval

Tar tib rak ami	Iste'molchi	O‘lchov birligi	Mikdori	Suv me'yori, l/sut	Suv sarfi, M ³ /sut
1					
2					
3					
4					
5					
6					
	Jami				
7	Ko‘shimcha sarf				
	Xammasi				

Ob'ektiv kurilishiga sarflanadigan suv mikdorini aniklash

4.2.-jadval

Ishning nomi	O'lchov birligi	Ish xajmi	Solishtirma suv me'yor,l	Suv mikdori, M ³
Beton korishmasini tayyorlash	M ³	120	400	48
Betonni 6 kun davomida suvlash	M ³	120	200	24
Zaminni zichlash uchun tuprokni namlash	M ³	144	150	21.6
Gisht terish va gruntovka uchun suvok korishmasini tayyorlash	M ³	210	200	42
	M ³	1920	100	192
Jami				327.6
Ichimlik suv sarfi,8 kishi x200 kun x 15 l	kishi x kun	1600	15	24
Yuvinish uchun suv sarfi	kishi x kun	1600	25	40
Jami				64
Suv sarfining umumiy sarfi:				391.6

Agar tarmokni ishga tushirish sozlash jarayonda suvning bakteriologik ko'rsatgichlar davlat standartlari talablariga javab bermasa,konsentrasiyasi 100 mg/l bulgan xlorli suv bilan 2 soat mobaynida zararsizlantiriladi.

Kanalizatsiya mavjudligi va okova suvni okizishga ko'yiladigan talablar. Maktabda paydo bo'ladigan okovalar maishiy xarakterda bo'lib ularning meyoriy kunlik miqdori m^3 , yillik miqdori esa m^3 ni tashkil qiladi. Bu okovalarning tarkibi asosan kum, muallak moddalar va organik birikmalaridan tashkil topadi. Ularning sifat ko'rsatkichlari doimiy emas. Bu okovalarda kumlar – 2 g/kishi-sut; muallak moddalar 40 g/kishi-sut, xlor birikmalaridan 65 g/kishi-sut ni tashkil qiladi.

Kurilish olib boriladigan maydonda vaktinchalik kanalizatsiya tizimlari urnatiladi. Kurilish tugagach umumkanalizatsiya tizimi kuriladi va okovalar to'lik biologik usulda tozalanadi. U payitgacha bu okovalar beton o'ralarda to'planadilar va o'ralar to'lishi bilan ularni tuman SES tamonidan ajratilgan maydonga Elib okiziladi.

v) transport (xom-ashiyolarni tashish, yer kazish, montaj ishlarini bajarish jarayonida)

$$\text{yer ishlarini bajarishda} = P_1 * P_2 * P_3 * P_4 * G * 10^6 / 3600, \text{g/s.}$$

P_1 -to'prokning changlanishi fraksiyasi P_1

P_2 -aerozal kurinishda o'tadigan chang fraksiyasi P_2

P_3 -ish zonasida shamol tezligini xisobga oluvchi koeffitsient P_3

P_4 -to'prok namligini xisobga oluvchi koeffitsient P_4

G-yer ishi miqdori, t/soat

g) payvandlash

Mazkur uy-joy kurilishi va undan foydalanishda atmosfera xovzasiga zararli moddalar deyarli chikmaydi. Binolar poydevori zavurni kazib, injenerlik kommunikatsiyalarini mantaj qilish ,tamirlash paytlarida kam miqdorda noorganik chang, payvandlash uskunasidan –payvandlash aerzoli, jumladan MnO_2 . va kranli avtomobilar is gazi, azod oksidi, kurum va xakozalar xavoga ajralib chikishi mumkin, Bu moddalarning xavoga chikish miqdori shunchalik kamki, ularning atrof-muxitga sal'biy ta'siri sezilarli bo'lmaydi. Kurilish

jarayonida ajralib chikadigan changning mikdorini kamaytirish maksadida tez-tez tuprok namlantirilib turiladi va texnik suv xisobidan amalga oshiriladi. Masalan binolarda tabiiy gaz yoki suvni o'tkazish paytida eng ko'pi bilan 5 kg ANO – 4 markali eliktron ishlatiladi va buning natijasida 33,6 g payvandlash aerezoli, 3,9 g marganets oksidi ajralib chikadi. Shu ish bajarilishiga, 67,2 g/yil, 7,8 g/yil marganets oksidi xavoga chiqiriladi. Bundan ko'rinib turibdiki, bu yer xavoni ifloslantiruvchi moddalarning mikdori sanitar – ekologik talablarni kanoatlantiradi.

d) kurilish xom ashyo materiallarini ortish-tushirish va saklash davomida ajralib chikadigan ifloslantiruvchi moddalar.

-kum, shagal-neorganik chang

-sement-sement changi

-gisht-neorganik chang

$Q = L \times B \times g / 100, \text{ t/yil}$

Bu yerda L-xom ashyo materiallarining chang ko'rinishida yo'kotilishi foiz xisobida $L = 0.21$

B-saklanayotgan, ortiladigan-tushiriladigan kum, shagal, sement sarfi, t/yil

g-tabiiy yo'kolishi me'yori, % $g = 0.15$

ye) kattik chikindilar mikdorini aniklash, ularni to'plash va zararsizlantirish.

-Kollej faoliyati paytida paydo bo'ladigan kattik maishiy chikindilarning umumiy yillik me'yoriy mikdori $_t$ yoki $_m^3$ ni tashkil qiladi. Bu chikindilar inert chikindilar bo'lib, maktabning shimoliy sharqida atrofi 1.8 m balandlikdagi devor bilan o'ralgan maxsus xududi betonlashtirilgan maydonda joylashtirilgan hajmi 1.2 m^3 bo'lgan maxsus metall kutilarda to'planadi va shartnoma asosida tuman obodonchilik korxonasiga topshiriladi;

-kurilish paytida paydo bo'ladigan kattik chikindilar mikdori 6.1-jadvalda keltirilgan.

Kurilish davrida ob'ektda paydo bo'ladigan ishlab chikarish kattik chikindilari

6.1-jadval

Tarti b raka mi	Chikindilar	O'lchov birligi	Me'yor, %	Maxs.mi.tn .	Chikin di
1	gisht sinkilari	Tonna	0.5		
2	Beton va korishma	Tonna	13		
3	Yooch chikindilar	M ³	1.5		
4	Xaltalar	Tonna	0.6		
5	Metall chikindilar	Tonna	0.5		
6	Plastmassa idishlar	Tonna	1		
	Jami				
	Maishiy katti chikindilar				
7	Ishchilar	Kishi	0.083		
8	Suprindi	Kg/m ² kun	0.021		
	Jami				
	xammasi				

8. Kurilish davomida va ishlab chikarishda ro'y berishi mumkin bo'lgan avariya (xalokatli) xolatlarni va ularning atrof-muxitga ta'sirini taxlil qilish;

Ob'ektning kurilishi va faoliyati davrida sodir bo'lishi mumkin bo'lgan xalokatli xolatlar. Masalan: kum, shagal yoki sement tashiyotgan avtotransport vositasida nosozlik tufayli kurilish materialining to'kilishi va boshka shunga o'xshash xolatlar. Havfsizlik choralari ko'rilmasa, baxtsiz tasodiflarga olib kelishi mumkin.

9. Ob'ekt kurilishining atrof-muxitga ta'sir etish xarakteri;

Chang zarralari insonlar nafas yo'llarida, burundagi tuklar, va sochlarda ushlanib qoladi. Shuning uchun atrof muhitga uning ta'siri salbiy.

10. Ob'ekt kurilishining atrof-muxitga sal'biy ta'sirini kamaytirish bo'yicha tadbirlar va takliflar; Binoni to'siqlar bilan o'rash.

Mazkur universitet kurish, jixozlash, ishga tushirish va yeksplutatsiya kilish paytida kuyidagi tadbirlar amalga oshiriladi:

- yer ishlari olib borishda eng zamonaviy kazish usuli ko'llaniladi;
- Kurilish jarayonida ajralib chikadigan changning mikdorini kamaytirish maksadida tez-tez tuprok namlantirilib turiladi;
- Injenerlik kommunikatsiya tarmoklari xizmat ko'rsatish uchun tibbiy ko'rikdan o'tgan, kudukda texnik xizmat ko'rsatish va texnika xavfsizligi koidalariga mukammal biladigan va unga amal kiladigan yoshi 18 dan kam bo'lmagan ishchilargagina ruxsat beriladi.

11. Ob'ekt kurilishidan so'ng xududning ekologik xolatini oldindan taxlil kilish;

Har bir shaxsning ekologik tarbiyasi – bu umumiy ta'lim tarbiyaning ajralmas qismi. Tabiatni sevis, tabiat resurslaridan tejamli foydalanish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. “Tabiatni muxofaza kilish to‘grisida”.O‘zbekiston Respublikasi konuni Toshkent, 1992-yil.
2. O‘zbekiston Respublikasida Davlat ekologik yekspertizasi to‘grisida nizom. O‘zbekiston Respublikasi Tabiat muxofaza kilish davlat ko‘mitasi.Toshkent,2001-yil.
- 3.”Suv va suvdan foydalanish to‘grisida” O‘zbekiston Respublikasi konuni.Toshkent,1993-yil.
4. “Atmosfera xavosini muxofaza kilish to‘grisida” O‘zbekiston Respublikasi konuni. Toshkent, 1996-yil.
5. Kurilish me'yorlari va koidalari.K M va K 02.04.01.-97. Bino va inshootlarning suv ta'minoti va kanalizatsiyasi. Toshkent,1997-yil.

XULOSA

Qishloqlarda zamonaviy uylarning qurilishi, odamlarning qishloqqa bo‘lgan mehrini yanada kuchaytirdi, ertangi kunga ishonchini mustahkamladi. Keyingi yillarda amalga oshirilayotgan ma'muriy madaniy va iqtisodiy islohotlar natijasida qishloqlar ko‘rinishi va turmushida keskin ijobiy o‘zgarishlar yuz bermoqda. Shu bois qishloq hududlarini me'moriy-loyihaviy qurish bo‘yicha bosh rejalarini ishlab chiqish, ularning iqlimi, demografik holati va boshqa shart-sharoitlarini hisobga olgan holda uylar va ijtimoiy inshootlarning namunaviy loyihalarini tayyorlash hamda shu loyihalar asosida zamonaviy shahar tipidagi imoratlarni qurish masalalariga alohida e'tibor qaratilmoqda. Moliyaviy va moddiy resurslarni tejash maqsadida qishloq posyolkalarining bosh rejalarini ishlash juda muhim tadbir. Ya'ni, shu yo‘nalishda bitta qishloqning rejasini ishlash va me'moriy rejalashtirish uning ijtimoiy va muhandislik infratuzilmasini ta'minlabgina qolmasdan, uni loyihalashtirish va qurishga sarflanadigan mablag‘ning 25-30 foizga kamayishiga imkon beradi.



Bugungi kunda qishloq fuqarolar yig‘inlari hududlaridagi loyihaviy ishlarni amalga oshirish bo‘yicha “Qishloqqurilishloyiha” mas’uliyati cheklangan jamiyatda zarur me’yorlar va qoidalar ishlab chiqilgan. Hozirgi qishloq qurilishini bundan 15-20 yil avvalgi holat bilan qiyoslab bo‘lmaydi. Odamlar endi yashash uchun har tomonlama qulay, shinam uylar barpo etishga harakat qilishmoqda. Bu esa arxitektura va loyihalash tashkilotlari oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda. Qurilish loyihalarida qishloq infratuzilmasining barcha jihatlarini – ko‘chalar, yo‘llar, gaz, elektr, suv, sug‘orish tarmoqlari alohida e'tiborga olinmoqda. Yirik qishloqlar uchun esa alohida rejalar ishlab chiqilgan.

Jamiyatimiz bosh rejalarni tuzishda katta tajribaga ega. O‘z navbatida, bu tadbirlar qishloq aholisi turmush sharoitini yanada yaxshilash imkonini beradi.



Qishloqlarda qurilayotgan uylar pishiq, puxta va albatta avlodlarga ko‘chmas mulk bo‘lib qoladigan boylikka aylanishi kerak.

O‘zbekiston sharoitida turarjoy uylari va xonadonlari quyidagi asosiy xonalar guruhidan tashkil topgan: shaxsiy yashash xonalari,

umumoilaviy yashash xonasi, xo‘jalik xizmat xonalari, shaxsiy gigiena xonalari, bog‘lovchi xonalar, turmush



uskunalarini saqlash va joylashtirish xonalari. Ushbu xonalar guruhidan tuzilgan turarjoylarning me'moriy kompozitsiyasi va rejasini mahalliy talablar asosida loyihalash Respublikamiz tabiiy-iqlim sharoitida mahalliy ijtimoiy-demografik omillar, ko‘p bolali oilalarning yashash an'analari, oila turmush tarzi va uning yozgi yashash shakli kabi hal qiluvchi omillarga asosiy e'tiborni qaratish bugungi kunning dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

Ayniqsa, mustaqillik yillarida qishloq infratizimini yaxshilashga qaratilgan tadbirlar qisqa muddat ichida Respublikamizni agrar o‘lkadan rivojlangan industrial mamlakatga aylantirdi.

Bu borada 2009 yilning “Qishloq taraqqiyoti va farovonligi”, 2011 yilning “Kichik biznes va tadbirkorlik” yili, 2013 yilning “Obod turmush” yili deb

atalishlari munosabati bilan amalga oshirilgan bunyodkorlik ishlari tom ma'noda tarixiy voqyealar bo'ldi.

Ma'lumki, hukumatimiz qishloq aholisining turmush madaniyatini oshirish masalasiga ahamiyatga molik siyosiy masala deb qarab, tuman, viloyatlarning rahbarlaridan, mahalla, qishloq fuqarolar yig'ini boshqaruvidan bu ishda burilish yasashni qat'iy talab etmoqda. Ana shu haqqoniy talab zamirida qishloqlarimizni obodonlashtirish, xalqimizning turmush sharoitini yaxshilashdek sharaflı vazifalar turibdi. Bu, o'z navbatida, qishloqda qurilish sifatini yaxshilash, qishloq me'morchiligi va landshaft arxitekturasini yuksak badiiy saviyaga ko'tarishga bog'liqdir. Shunga qaramasdan ayrim tuman va xo'jalik rahbarlari qishloqning moddiy, estetik asoslariga, qishloqda turmush tarzining o'zgartirilishiga yetarlicha e'tibor bermayaptilar. Bu esa qishloq aholisining, ayniqsa, yoshlarning shaharga intilish sabablaridan biri bo'lmoqda. Hukumatimiz tomonidan qo'yilgan ushbu dolzarb, keng ijtimoiy ahamiyatli bo'lgan masalalarni yechishda qishloqlarda nafaqat yashashga qulay, shinam va chiroyli, zamonaviy uy-joy binolari, balki manzaraviy me'morchilik, ya'ni qishloq landshafti muhitining sifatini yaxshilashga yo'naltirilgan kompleks ishlar ham davr talabidan kelib chiquvchi dolozarb masaladir.

ADABIYOTLAR
RO'YXATI

1. Buyuk va mukaddassan Mukaddas Vatan. Toshkent 2011 Ilmiy ommabop risola.
2. Landshaft arxitekturasini va dizayni. Sam. 2003y A.S Uralov
3. Adilova. L. A «Landshaft arxitekturasini» 1-kism Toshkent 2009y
4. Landshaft arxitekturasini Adilova. L.A Ukuv kullannma Toshkent 2000
5. Arxitektura. Ma'ruza matnlari. M.Maxmudov Sam. 2005y
6. "Arxitekturaviy loyixalash asoslari". O'quv qo'llanmasi. TAKI, 2000 yil.
7. QMQ 2.08.02-96. Jamoat binolari va inshootlari.

(Общественные здания и сооружения). O'zbekiston Respublikasi Davlat Arx. va Qurilish qo'mitasi. Toshkent, 1995.-232 bet(o'zb.t.-1...99b).

8. T.M.Maxmatkulov, G.Sh.Shomirzaev, A.Rayimkulov. «Xayotiy faoliyat xavfsizligi» fanidan ma'ruzalar matni. TATU Samarkand filiali. Samarkand-2007. 7-8 betlar
9. G'. Yo. Yormatov, O. R. Yuldoshev, A. L. Xamraeva. "Xayot faoliyati xavfsizligi" (Darslik), Toshkent, "Adolat" nashriyoti, 2009 y.(61-86 betlar).
- 10.Безопасность жизнедеятельности. Под редакцией С.В.Белова, М, Высшая школа, 2002.
- 11.X.Raximova. A.A'zamov. T.Tursunov. "Mehnatni muhofaza qilish", Toshkent, O'zbekiston, 2003.
12. O. Qudratov, T. G'aniev. "Hayot faoliyati xavfsizligi", Toshkent, Mehnat, 2004.
13. Me'morchilik va qurilish muammolari. Ilmiy texnik jurnal. 2012y 2 son